



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA LOYIHAVIY FAOLIYAT ASOSIDA IJODIY FIKIRLASH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH

Toshtemirova Gulsanamoy Ilhomjon qizi

Farg'ona Davlat Universiteti magistranti

gulsanamtoshtemirova798@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur tezisdagi boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirishda loyihaviy faoliyatning o'rni, mazmuni va ahamiyati tahlil qilingan. Loyihaviy yondashuv o'quvchini mustaqil fikrlashga, muammoga yechim so'topishga, innovatsion g'oyalarni ilgari surishga yo'naltiradi.

Kalit so'zlar: ijodiy fikrlash, kompetensiya, loyihaviy faoliyat, ta'lim texnologiyasi, boshlang'ich sinf.

Аннотация: В данной диссертации анализируются роль, содержание и значение проектной деятельности в развитии творческого мышления учащихся начальной школы. Проектный подход стимулирует самостоятельное мышление учащихся, поиск решений проблем и выдвижение инновационных идей.

Ключевые слова: творческое мышление, компетентность, проектная деятельность, образовательные технологии, начальная школа.

Annotation: This thesis analyzes the role, content, and significance of project activities in developing the creative thinking competence of primary school students. The project approach encourages students to think independently, find solutions to problems, and put forward innovative ideas.

Key words: creative thinking, competence, project activities, educational technology, primary school.

So'nggi yillarda qabul qilingan Prezident qaror va farmonlari ta'lim tizimining har bir bo'g'inini, xususan, boshlang'ich ta'limni rivojlantirishga xizmat qiladi.

2025-yil 14-iyundagi 365-sonli qaror "Ayrim toifadagi o'quvchilarni maktabdan tashqari ta'limga jalb qilish tartibi to'g'risida" deb nomlanadi. Unga ko'ra, kambag'al oilalar farzandlari uchun kasb-hunar, IT, xorijiy til va boshqa fanlar bo'yicha qo'shimcha darslar tashkil etiladi.

Ta'lim xarajatlarining 80 foizi davlat byudjeti hisobidan qoplanadi.

O'quvchilar bir vaqtning o'zida ikkitagacha to'garakka qatnashishi va bu imtiyozdan ikki marta foydalanish huquqiga ega. To'garaklar davlat hamda nodavlat markazlar, IT va til o'quv kurslari tomonidan elektron platforma orqali taklif etiladi.¹

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, Prezidentimiz farmonlarining mazmun-mohiyatini chuqur tahlil etish va ularni ta'lim amaliyotida samarali qo'llash — milliy ta'lim tizimining barqaror rivojlanishini, pedagogik jarayonning

¹ Maktablarda ayrim toifadagi o'quvchilarni maktabdan tashqari ta'limga jalb qilish tartibi tasdiqlanadi, Ta'lim xabarlarri sayti, 2025-yil 14-iyun.<https://talimxabarlari.uz/33127/>

innovatsion asoslarda tashkil etilishini hamda ta‘lim sifatining yangi bosqichga ko‘tarilishini ta‘minlaydi.

Loyihalash (lot. *projectus* - olg‘a tashlangan fikr, g‘oya, obraz), nomini o‘zi aytib turibdiki, kelajakda amalga oshiriladigan ishlarni rejalashtirish bo‘lib, projekt ma‘lum bir hisob-kitob, chizma va boshqalarga asoslangan holda tavsiflash, bayon qilish shaklida mujassamlashgan g‘oya, fikrning ifodasidir. U bildirilgan fikrni mohiyatini va uni amalga oshirish imkoniyatlarini ochib beradi.

Loyihalash metodi ta‘lim jarayonining muhim jihatlaridan biri bo‘lib, o‘qituvchining talabalar bilan individual ishlash imkonini beradi. O‘qituvchi dars vaqtidan unumli foydalanib, talabalarning individual psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ular bilan yakka tartibda ishlaydi².

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijodiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish bugungi ta‘lim tizimida ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Ijodiy fikrlash o‘quvchilarning mustaqil o‘ylashi, yangi g‘oyalar yaratishi va muammolarga noodatiy yechim topish qobiliyatini shakllantiradi. Bunday kompetensiyani rivojlantirishda ta‘lim jarayonida zamonaviy metodlardan oqilona foydalanish muhim o‘rin tutadi.

Hasanboyeva O. ta‘kidlaganidek, “boshlang‘ich sinf o‘quvchisining fikrlash faoliyati uning bilish jarayonida mustaqil yondashuvi, kuzatuvchanligi va ijodiy tahlilga tayyorligi orqali belgilanadi”.³ Mazkur fikr shuni anglatadiki, o‘quvchining ijodiy tafakkurini rivojlantirish uchun uni faqat tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki mustaqil izlanish olib boruvchi, yangi g‘oya yaratuvchi shaxs sifatida shakllantirish zarur. Loyihaviy faoliyatda o‘quvchi maqsad qo‘yadi, reja tuzadi, izlanadi, amaliy natijaga erishadi va o‘z ishini tahlil qiladi. Bu jarayon bolalarda o‘z fikrini erkin ifoda etish, mas‘uliyatni his etish va yangicha qarashlarni ilgari surish malakasini shakllantiradi. Shu orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchisida ijodiy fikrlash kompetensiyasi tabiiy tarzda rivojlanadi. Loyihaviy faoliyat asosida tashkil etilgan ta‘lim jarayoni esa o‘quvchilarni faol ishtirok etishga, mas‘uliyatni his etishga hamda o‘z fikrini erkin ifoda etishga o‘rgatadi.

Buyuk Britaniya olimlari orasida “boshlang‘ich ta‘limda loyihaviy faoliyat asosida ijodiy fikrlashni rivojlantirish” mavzusini eng chuqur, keng va ilmiy asosda yoritgan eng mashhur va eng ko‘p iqtibos keltirilgan yozuvchi olim Asosiy yo‘nalishi: Boshlang‘ich ta‘limda ijodiy pedagogika (creative pedagogy) O‘qituvchining ijodiylikni shakllantirishdagi roli bolalarda tasavvur, qiziquvchanlik, mustaqil fikrlashni rivojlantirish, Loyihaviy o‘qitish, o‘yin asosida o‘rganish va refleksiya, Har bir bola tug‘ma ijodkor — o‘qituvchi bu salohiyatni ochib berishi kerak. Dars jarayoni faqat bilim emas, balki izlanish, tajriba va savol berishga asoslanishi lozim. Project-Based Learning (PBL) ijodiy fikrlashni amaliy shaklda rivojlantiradi, chunki bola natijani o‘zi yaratayotganini his qiladi.

Ijodiy pedagogika — bu metodlar to‘plami emas, balki fikrlash madaniyati.

² Sayidova Nilufar “Pedagogikada loyihaviy faoliyat tushunchasi va tuzilmasi” 2025-yil 13-aprel
<https://doi.org/zenodp.15211701>

³ Hasanboyeva O., To‘raqulova S. Pedagogika.- Toshkent: Innovatsion rivojlanish

Uning kitoblari Cambridge, Oxford, Exeter kabi universitetlarda asosiy o‘quv manba sifatida o‘qitiladi. 2023 yilda u “UK Educational Research Association” tomonidan Eng ta‘sirchan ta‘lim olimi deb tan olingan.

Uning ishlari O‘zbekiston pedagogikasida ham moslashtirilgan shaklda foydalanilmoqda ayniqsa ijodiy fikrlash va refleksiya mavzularida⁴.

Xulosa qilib aytganda, loyihaviy faoliyat asosida tashkil etilgan ta‘lim jarayoni boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga faqat bilim emas, balki uni mustaqil izlab topish, tahlil qilish va amaliyotda qo‘llash ko‘nikmasini beradi. Bu yondashuv o‘quvchilarda ijodiy fikrlash, mantiqiy mushohada yuritish, muammoni hal etish va o‘z fikrini asoslab ifoda etish malakasini shakllantiradi.

Natijada, bola o‘z fikriga ega, mustaqil qaror qabul qila oladigan, yangi g‘oyalar ishlab chiqishga tayyor shaxs sifatida kamol topadi. Loyihaviy ta‘lim o‘quvchilarda mas‘uliyat, jamoada ishlash, o‘z-o‘zini baholash va o‘zlashtirilgan bilimlarni ijodiy tatbiq etish madaniyatini rivojlantiradi.

Demak, bu yondashuv o‘quvchini kelajakda ijodkor, yangilik yaratuvchi, erkin fikrlovchi shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Maktablarda ayrim toifadagi o‘qtuvchilarni maktabdan tashqari ta‘limga jalib qilish tartibi tasdiqlanadi, Ta‘lim xabarlarri sayti, 2025-yil 14-iyun <https://talimxabarlari.uz/33127/>

2. Sayidova Nilufar “Pedagogikada loyihaviy faoliyat tushunchasi va tuzilmasi” 2025-yil 13-aprel <https://doi.org/zenodp.15211701>

3. Hasanboyeva O., To‘raqulova S. Pedagogika.-Toshkent: Innovatsion rivojlanish

4. Teresa Cremin (The open University, London) <<Teaching E Routledge, 2020

5. Yo‘ldosheva G. Loyihaviy faoliyat asosida o‘quvchilarda mustaqil fikrlashni shakllantirish. — Farg‘ona: FDU nashriyoti, 2023.

⁴ Teresa Cremin (The open University, London) <<Teaching English Creatively>> (Routledge, 2020)